

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“MILLIY G'OYA VA MA'NAVIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI”
mavzusini o'qitish metodikasi” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi:

Kimyo-ekologiya ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi Bozorov Farux

Ilmiy rahbar:

k.f.n. D.A.Karimova

Navoiy 2014

MAVZU: MILLIY G'OYA VA MA'NAVIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

REJA:

Kirish(mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari)

1. Milliy g'oya, ma'naviyat tushunchasi hamda uning mazmun va mohiyati.
2. Prezident I.Karimovning milliy–ma'naviy tiklanish konsepsiyasi va uning mohiyati
3. Milliy ma'naviy qadriyatlar tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi
4. Qadriyatlar – insonni ma'naviy-axloqiy tarbiyasining negizi
5. Milliy g'oya va ma'naviy hayot

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TUSHUNTIRISH QISM

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu yutuqlar Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik jamiyat qurishni o'zida ifoda ettiruvchi bozor munosabatlariga asoslangan konsepsiyaning hayotiyliigi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda bu konsepsiyaning to'g'riligini jahondagi yirik siyosiy arboblardan tomonidan e'tirof etilishi O'zbekistonning obro'-e'tiborini oshirmoqda.

Bugungi kunga kelib ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga nisbatan munosabat tobora kuchayib bormoqda. Sobiq ittifoqdosh, bugungi mustaqil davlatlarning ko'pchiligida birida oldinroq, ikkinchisida keyinroq ma'naviyat omilining roli va ahamiyatini oshirishga imkoniyat darajasida e'tibor berilmoqda.

Bu borada O'zbekistonning tarixan qisqa vaqt ichida Prezident Islom Karimovning bevosita tashabbusi asosida ma'lum tajribalarni to'plashga erishganligini ta'kidlash lozim bo'ladi. Ma'naviyatni ko'tarish davlat siyosatida ustivor sohaga ko'tarildi va u o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi.

Prezidentimiz Islom Karimovning ikkinchi charqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida qilingan ma'ruzasida ham ma'naviyat masalasi XXI asr bo'sag'asida ikkinchi ustivor yo'nalish deb qaraldi. Hozirda erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifa ekanligi qayd etildi. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalashimiz kerak ekanligi uqdiriladi.

Aslini olganda, hozirgi kunda ma'naviyatning ustivor sohaga ko'tarilishining bir qator sabablari bor. Biz bu o'rinda ana shu sabablarning ba'zilarinigina ko'rsatib o'tishni lozim topdik.

1998 yilning 24 iyulida Vazirlar mahkamasi “Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2006 yil 25 avgustda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida”gi qarorlari qabul qilindi. YUqorida qayd etganimizdek, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ham jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish, islohotlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustivor yo’nalashi ekanligi yana bir bor qayd etildi. Bu sohadagi muhim vazifalar, oldimizda turgan muammolar va ularni kechiktirmay hal etish zararliligiga xalqimiz e’tibori qaratildi.

“Biz – deydi Prezident, - iqtisodiy o’nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma’naviy o’nglanishi, ma’naviy poklanishi, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg’un bo’lishini istaymiz”¹.

Chunki xalq ma’naviyati o’nglanmaguncha, na ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, na iqtisodiy sohada jiddiy yangilanishlar quvvatga kirishi qiyin.

Ma’naviyat juda murakkab, serqirra, shu bilan birga xalq diliga nihoyatda yaqin tushunarli hodisa. Uni, bir tomondan, soxta ilmiy murakkab ta’riflar bilan mavhumlashtirmay, shu bilan bir paytda siyqa, odmi “targ’ibot”ga aylantirmay, xalq ongiga tiniq yetkazmoq, yosh avlod ruhiga esh qilmoq lozim.

Mustaqillik ma’naviyatining asosini tashkil etuvchi bu to’rt negiz o’zaro chuqur ichki uyg’unlikka ega. Shu bilan birga bugungi kun uchun dolzarbligi jihatidan alohida inson shaxsining o’z ichki imkoniyatlarini erkin namoyon qilish masalasi birinchi o’ringa chiqib turibdi. “Erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng daolzarb vazifadir”², deb ta’kidladi I.Karimov 1999 yili 4 apreldagi ma’ruzasida.

Milliy ma’naviyat, avvalo tarixiy hodisadir. Ushbu kunda bir yilda balki hatto bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa’riga singib ketgan bo’lib, ularning necha ming yillik ma’naviy

¹ Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T., 1993, 50-bet.

² Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1993, 62-bet.

kamolot pilla-poyalarini bosib o'tganligini aniqlash bugun uchun murakkab muammodir.

Ammo milliy ma'naviyat tarixi bilan siyosiy –ijtimoiy, hatto madaniy hayot tarixi orasida muhim farqli jihatlar mavjud. Avvalo milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Unda ba'zan asrlar kunlarga va aksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Milliy ma'naviyat kamolot zamonda, ya'ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba'zan muddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi. Moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi: ma'naviyat esa yuksalib, boyib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojeiy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lam va mazmunda o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Men bu mavzuni yozishda quyidagi masalalarni yoritishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim:

- 1) O'zbek xalqining asriy orzusi bo'lgan mustaqillikning qo'lga kiritilishi;
- 2) Milliy mustaqillik sharoitida ma'naviyat masalalarining dolzarblashuvi va buning ahamiyati;
- 3) Milliy ma'naviyatimiz rivojlantirishga qaratilgan muhim qarorlar va ularning mohiyati;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy ma'naviyatimizni rivojlantirishga qo'shgan buyuk hissasi;
- 5) Mustaqillik yillarida yurtimizda milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi haqida.

Mavzu kirish, 2 bob, 4 paragraf va xulosa qismidan iborat. Mavzuning birinchi bobida Prezidentimiz I.A.Karimov ma'naviyatimiz yuksalishiga qo'shgan buyuk hissasi haqida va mustaqillik yillarida ma'naviy yuksalishga berilgan e'tibor haqida fikr yuritiladi.

Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishiga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlikning shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Haqiqatan ham o'z Vatanini sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas'ulligini his etmagan har bir inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

Prezidentimizning ilgari surilgan konseptual g'oyalarni umumlashtiradigan bo'lsak, ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirishi;

- milliy – ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir. Ma'ruzachi Prezidentimiz asrlarida ilgari surilgan ana shu konseptual g'oyalarni asarlar bo'yicha mukammal bayon qilib berishi zarur bo'ladi.

1. Milliy g'oya, ma'naviyat tushunchasi hamda uning mazmun va mohiyati.

Milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir.

Milliy g'oya – u yoki bu millat, xalq, elatning milliy an'analarini, turmush tarzini va tanlab olgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimni va umuman milliy manfaatlarni himoya qiladigan, qo'llab-quvvatlaydigan, ularni mustahkamlash uchun ko'maklashadigan qarashlar majmuidan iborat. O'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga yetishning o'ziga mos yo'llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo'lgan g'oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan «Vatan ravnaqi», «YUrt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik», «Millatlararo hamjihatlik», «Diniy bag'rikeng-lik» kabi g'oyalar ana shunday umummilliy g'oyalar qatoriga kiradi.

O'zbek milliy g'oyasi - o'zbek xalqi milliy mafkurasining g'oyalari umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi. Bu g'oyalar yer yuzidagi barcha tinchliksevar, ezgulikka intiluvchi xalqlar va millatlar, davlatlar qabul qiladilar.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda 2 kuch: 1) bunyodkorlik va 2) buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi. **Bunyodkorlik g'oya** insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi. Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtini, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g'oyalar asos bo'lgan.

Ozodlik g'oyasi - mazlumlarni o'z erki uchun kurashga chorlaydigan, qullik va qaramlikning har qanday ko'rinishini inkor etadigan g'oyadir.

Mustaqillik g'oyasi - eng ulug' va ezgu g'oya. Har bir xalq istiqlol tufayli o'ziga yot va begona tuzumdan, ijtimoiy tazyiqlardan xalos bo'ladi, o'z salohiyatini to'la-to'kis ishga solish, o'zi istagan va o'zi tanlagan yo'ldan borish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Adolat va haqqoniyat g'oyalari - insonning tabiati va ijtimoiy tuzumning mohiyatini belgilaydigan, qudratli kuchga ega bo'lgan g'oyalardir. Odamlar asrlar mobaynida odil jamiyatni orzu qilib, haqiqat tantanasi uchun kurashib kelgan. Adolat buzilgan yerda umidsizlik va tushkunlik hukm suradi. Adolat tantana qilgan jamiyat yuksaklikka ko'tariladi.

Har bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, xalqning qadriyatlari va orzu-istaklariga mos keladigan g'oyalar kishilarning ongi va qalbidan joy olgan. Ta'kidlash joizki, bashariyatning ziddiyatli tarixi mobaynida hayotbaxsh g'oyalar bilan bir qatorda, soxta va tuban niyatlar, tajovuzkor va g'arazli fikrlar ham ko'p bo'lgan. Binobarin, xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, o'zining sifatlariga ko'ra g'oyalar **yuksak** yo **tuban**, **bunyodkor** yoki **vayronkor**, **buzg'unchi** yoxud **ekstremistik**, **tajovuzkor** bo'lishi ham mumkin.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir¹. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar o'rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qo'zg'aydigan tuban fikrlar buzg'unchi g'oyalarga misol bo'ladi. Aslida bunday qabih niyat va soxta shiorlarni g'oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgani, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin.

Sohiblari, ya'ni g'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, **siniy g'oya**, **milliy g'oya**, **umumxalq g'oyasi**, **umuminsoniy g'oyalar** ham mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda harakatga undayotgan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan siniy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid bo'lishi ham mumkin.

Istiqlol el-yurtimiz uchun o'z taqdirining haqiqiy egasi bo'lib, o'z qadriyatini anglab, munosib hayot kechirish uchun keng imkoniyat yaratib berdi...

¹ Каримов И. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Т.7. -Т.: «Ўзбекистон», 1999, 308-бет.

Mustaqillik yillarida boy tariximiz, betakror merosimiz, muqaddas dini diyonatimiz, ko'hna urf-odat va an'analarimizning qayta tiklangani, bugungi kunda mehr-oqibat, hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un bo'lib yashash, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi hayotimizdan atroflicha o'rin oldi.

“- O'zingiz o'ylab ko'ringlar, aziz do'stlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik?

-Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo'lida edi?

-Ka'ba deb qayerga sig'inar edik? Har tong “Assalom!..” degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg'onardik?

-Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbandlarning muqaddas xoklariga e'tibor bormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug' bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?

O'tgan o'n sakkiz yil davomida mustaqillik biz uchun eng ulug', eng aziz qadriyat bo'lib, milliy o'zligimiz, or-nomusimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli, ezgu orzu-intilishlarimiz, yutuq va marralarimizning hayotbaxsh manbai sifatida shu muqaddas zaminda yashayotgan barcha vatandoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin egalladi.

Xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, mamlakat o'tmishiga, boy tarixiy merosiga, ma'naviy qadriyatlar va an'analarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi.

Respublika Prezidenti o'zining asarlari va ma'ruzalarida izchillik bilan ma'naviyat va ma'rifat sohasiga alohida e'tibor bermoqda. Jumladan, “Mustaqillik-ulkan mas'uliyat”, “Fan Vatan ravnaqiga xizmat qiladi”, “1997 yil – Inson manfaatlari yili bo'lsin”, “Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q”, “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida”, “Iroda va iymon-e'tiqodimiz sinovi”, “Vatan ozodligi-oliy saodat”, “Olloh qalbimizda, yuragimizda”, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz”, “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...”, “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda”, “Qonun va adolat

ustuvorligi erkin va farovon hayot kafolatidir”, “YUksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kabi o’nlab asar va ma’ruzalarida ma’naviyatning turli qirralari yoritilganki, bularning barchasi Respublika ziyolilarini ushbu sohada olib borayotgan ishlarini yanada yuqori bosqichga ko’tariishiga yordam berayotir.

YUrtboshimizning tashabbusi bilan 1994 yil 23 aprelda “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tashkil qilish to’g’risida”gi farmon va shu yilning 8 iyunida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. SHu qaror asosida “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi ish boshladi. Undan sal oldinroq Prezidentimiz tashabbusi bilan “Termiz ma’naviyat akademiyasi” ham ish boshlagan edi.

Shu xayrli ishlarning davomi sifatida 1996 yil 4 sentyabr kuni Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik Markazi rahbariyati hamda boshqaruv a’zolarining respublika Prezidenti bilan uchrashuvi bo’lib o’tdi. SHundan so’ng oradan sal vaqt o’tmay yana boshqa farmonlar va qarorlar e’lon qilindi. Bu farmonlar va qarorlarni hayotga tatbiq qilish uchun ulkan ishlar olib borilmoqda.

Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi va “Milliy g’oya targ’iboti”ga oid Prezident tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarning ayrimlariga e’tiborni qarataylik:

- “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazini tashkil etish to’g’risida”gi 1994 yil 23 apreldagi PF-842 sonli farmoni;
- “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to’g’risida”gi 1996 yil 9 sentyabrdagi 1559 sonli Prezident farmoni;
- “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi 1999 yil 3 sentyabrdagi PF-2385 sonli Prezident farmoni;
- Respublika Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi “Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida”gi PQ-451 sonli qarori.

Amir Temur zamonlarida jamiyatda yashovchilarni yuksak saviyali, madaniyat va ma’naviyat sohiblari qilib tarbiyalashni davlat o’z zimmasiga olgan edi. Mana,

endilikda yana shu davrlar mustaqillik natijasida qaytib keldi. SHu sababli, farmon va qarorlardan yaqqol seziladiki, bu sohalarni rivojlantirishdagi har qanday g'ovlar olib tashlanishi, to'siqlarga barham berilishi ta'kidlangan. Bu ishda ham tegishli moddiy texnika bazasi yaratilishi ravshan belgilangan.

Ma'naviyatni yuksaltirishning bosh yo'li endilikda ham "Bilim va tarbiya" ekanligi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar Prezidentimiz I.A.Karimov faoliyati bilan bog'liqligi endilikda hech kimga sir emas. Lekin, erishilgan yutuqlar ichida shunday bir yutuq borki, bu yutuqni boshqa yutuqlar ichida ustuvor desak xato bo'lmaydi. *Bu yutuq ma'naviy yuksalish yutug'idir.* Bu sohada qilingan va qilinayotgan ishlar "inson", degan zotni quvontirmay iloji yo'q. Ma'naviy yuksalish har bir insondagi ruhiy holat, ong taraqqiyoti bilan bog'langandir. Endilikda yuksak ma'naviyatni shakllantirishga harakat qilgan ziyolilar miqdori oshdiki, ular ma'naviyatga qayta-qayta ta'rif berib, uni sayqallashtirmoqdalar. Bu sayqallashtirishga I.A.Karimovning quyidagi fikrlari asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda: "Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma'naviyatning ma'nosi ana shunday juda keng... Inson o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi... Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak".³

I.A.Karimov O'zbekistonning yangilanish negizlarini kengroq qilib tushuntiradi: "O'zbekistonning yangilanish va rivojlanishining o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi.

Bu negizlar:

- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

³ И.А.Каримов. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: "Ўзбекистон", 1996, 80-81-бет.

- Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik".⁴

Ma'naviyat falsafiy tushuncha sifatida Prezidentimiz faoliyatidan mustahkam o'rin oldi. Xalq va ma'naviyatning dialektik munosabati I.A.Karimov asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadiki, ular haqiqatdan ham chambarchas bog'liq va o'zaro munosabatdadir. "Ma'naviyat... yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki, yangi tarix ham buning ko'plab misollarini biladi".³

"Ma'naviyat" so'zi ancha qadimiy tushuncha bo'lib, "Ma'naviyat" so'ziga sobiq ittifoq davrida e'tibor qaratilmadi, nazardan chetda qoldirildi. Hatto, ilmiy, ilmiy-ommabop kitoblarda bu so'zga jiddiy e'tibor berilmagan. "Ma'naviyat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, unda insonning ruhiy, aqliy jihatlari, o'z xususiyati, mohiyati, g'amxo'rliqi, qayg'urish, quvonish kabi jarayonlarni o'ziga mujassamlashtirgan. Hozirgi davrda ma'naviyat tushunchasining falsafiy mazmuni to'g'risida juda ko'p ta'riflar berilgan. Biz ularning ba'zilarini qiziquvchilarga havola qilamiz.

- "Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir"¹;
- "Ma'naviyat-insonning zot belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli"²;
- "Ma'naviyat-jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha"³;
- "Ma'naviyat-inson axloqi va odobi, bilimlari, ist'edodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir"⁴.

⁴ И.А.Каримов. Истиклол ва маънавият. Т.: "Ўзбекистон", 1994, 5-бет.

³ И.А.Каримов. Ўзбекистон миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: "Ўзбекистон", 1996, 81-бет.

¹ И.А.Каримов. Истиклол ва маънавият. Т.: "Ўзбекистон", 1994, 9-бет.

² Жалолов А. Мустақиллик маъсулияти. Т.: "Ўқитувчи", 1996, 29-бет.

³ Иброҳимов А, Султонов Х, Жўраев Н. Ватан туйғуси. Т.: "Ўзбекистон", 1996, 111-бет.

⁴ Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т.: "Университет", 1998, 34-бет.

- “Ma’naviyat-insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to’g’rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go’zallik, sevisht, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko’plab asl insoniy xislatlar va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuasidir”⁵;

- “Ma’naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur. Oliy haqiqat nuridir. SHu sababli inson ko’nglini “haqiqat asrorining ganjinasi”-demishdir. Faqat inson qalbi o’zida haqiqat nurini aks etira olishi uchun unga sayqal bermoq zarur”⁶;

- “Ma’naviyat insonni hayvondan farqlab turadigan oliy qadriyat”⁷;

- Ko’rib turganimizdek, ma’naviyatga berilgan ta’riflar turlicha shaklda bo’lsa ham ularning barchasi inson faoliyatiga borib taqaladi. Inson faoliyatining turli tomonlarini baholaydi. Insonning ichki va tashqi xatti-harakati, go’zalligi, his-tuyg’ulari, kechinmalarini aks ettiradi. T. Mahmudov fikricha: “Ma’naviyat – insonning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog’ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir”¹. YOki boshqa manbalarda shunday ta’riflar bor: “Ma’naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir” (“Vatan tuyg’usi” kitobidan), “Inson barcha tirik mavjudotning gultoji, hayot guli deyilganda uning yuksak ma’naviyat egasi ekanligi nazarda tutiladi. Ma’naviyat insoniylikka olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlarining yig’indisidir”². “Ma’naviyat insonning bilimi, tajribasi va mehnat malakasi, odob-axloqi, iymon va e’tiqodi, mafkuraviy qarashlarining yaxlit tizimidir”³. “Ma’naviy yetuklik shunday bir xazinaki, uni egallagan odam insoniy qadr-qimmatni hamma narsadan ustun qo’ya oladi, o’z manfaatini o’zgalar manfaati bilan qo’sha oladi, hayot-mamot masalalari hal bo’layotgan damlarda aql-idrok doirasidan chiqmaydi”⁴. Bizningcha, ***ma’naviyat insonlarda yuqori darajada takomil topgan insonparvarlik xislatlarining yig’indisidir.*** Ta’riflardan ko’rinib

⁵ Эркаев К. Маънавият – миллат нишони. Т.: “Маънавият”, 1997, 27-бет.

⁶ Имомназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил боскичлари. Т.: 1996, 6-бет.

⁷ Аъзамов Э. Юксак поғона. Маънавиятнинг ойдин йўли. Т.: “маънавият”, 1996, 32-бет.

¹ Т.Махмудов. Мустақиллик ва маънавият. Т.: 2001, 9-бет.

² А.Эркаев. Эзгулик сари йўналтирилган ирода. “Тафаккур”, 1997 йил, 3-сон 14-бет.

³ З.Ғофуров, С.Тошев. Маънавият тарбияси. Қарши “Насаф”, 1998, 11-бет.

⁴ А.Эшонқулов. Маънавият тарбияси. “Мулоқот”, 1997 йил, 1-сон, 20-бет.

turibdiki, ma'naviyat keng qirrali sermazmun va insondagi nozik tomonlarni qamrab olgan falsafiy tushunchadir. Ma'naviyat keng qamrovli bo'lganligi tufayli tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda ishlatilganda, uning alohida holati inson ko'z oldida gavdalansa, keng ma'noda esa inson ma'naviyatining keng, umumiy qirralari, unga amal qilish jarayonlari tushuniladi.

Ha, yuqoridagi ta'riflarda insoniy fazilatlarga e'tibor qaratilgan bo'lsada, yuksak ma'naviylik jihatlarni nihoyatda noyob xislat ekanligini I.A.Karimovning "Turkiston" gazetasi muxbirlarining savollariga javoblarida atroflicha aks etganligini ko'ramiz. Unda: "Ma'naviyat,-deganda avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchni tasavvur qilaman"¹ deyilgan.

Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu so'zga keng va atroflicha ta'rif bergan:

"Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"
19-bet.

Ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

2. Prezident I.Karimovning milliy–ma'naviy tiklanish konsepsiyasi va uning mohiyati

¹ I.A.Karimov. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. Т.: "Ўзбекистон", 1999.

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyot, millat kamolati va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi chunki, ma'naviyat rivojlanadigan jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi. Buni chuqur his qilgan va o'z qalbidan o'tkazgan Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyatni qurushning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurishni milliy-ma'naviy tiklanish bilan uyg'un holatda bo'lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. U o'zining hajmi jihatdan kichik bo'lsa ham, ammo mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatdan mukammal, fundamental dastur bo'lgan "O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyoti yo'li" nomli asrida mustaqillikdan keyin O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviyat sohasidagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Umuman bu asar O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning ilmga asoslangan dasturi hisoblanadi. Chunki unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha g'oyalar o'tgan davrda o'zining ifodasini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga ko'tarildi.

Islom Karimov ushbu asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy negizlarini belgilab berar ekan, "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslandi" – deb ko'rsatadi va qo'yidagilarni belgilab beradi.

- umuminsoniy qadriyatlarga, sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insoning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik¹.

Asarda ana shu negizlarning mohiyati ham ochib berilgan Jumladan, Islom Karimov shunday yozadi: "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, siyosat, mafkura. T: O'zbekiston, 1993, 74-bet.

Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil-qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab – asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, faravonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir”².

Ko'rinib turibdiki, Prezidentimiz o'z asarida ma'naviyatimizni rivojlantirish vazifalarini belgilab bergan.

Muallif xalqimizning ma'naviy ildizlari chuqur ekanligini alohida ta'kidlaydi, ularni qayta tiklash va yangi mazmun bilan boyitish zarurligini strategik vazifa sifatida belgilaydi. Bu masala alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlayotganimizga asosiy sabab shuki, muallif keyingi asarlarida ham ma'naviy merosimizni qayta tiklash g'oyasini ijodiy rivojlantiradi va uning millatimiz ma'naviy taraqqiyoti uchun asosiy yo'nalish bo'lishini asoslab beradi.

Islom Karimov xalqimizning buyuk fazilatlari haqida to'xtalib insonparvarlikning o'zbeklarga xos qirralarini ko'rsatib berishga e'tiborni qaratadi. Jumladan, “Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. SHafqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir”.

Xuddi mana shu fazilatlarimizning mohiyatini talablarga yetkazish muallimning diqqat markazida bo'lishi zarur. Chunki milliy ma'naviyatimizning asosiy manbalari ana shunga borib taqaladi. Bugungi yoshlarimiz buning mohiyatiga yetib borishlari zarurdir.

Asarda ma'naviyatning xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishdagi roli ham asoslab berilgan. Jumladan, Prezidentimiz shunday yozadi: “Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan yetilgan”¹.

² O'sha joyda .

¹ O'sha asar78-bet.

Ma'naviyatning milliy taraqqiyotidagi o'rni va uni o'zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan: "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi"².

Ma'ruzani o'qish jaryonida muallim tlablarga bugungi kunda milliy ma'naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa sifatida belgilanganligi orqali asoslab berishi lozim.

Islom Karimov o'z asarida mamlakatimizda milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa ekanligiga e'tiborni qaratib quyidagi konseptual g'oyani ilgari suradi. U shunday yozadi: "Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak deydiyanlar haq bo'lmasa kerak. Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi..."

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g'oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki: birinchida, bu bilan muallif sobiq sho'rolar davrida ma'naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy inqirozining sabablarini ham ko'rsatib beradi. Ikkinchidan, ma'naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma'naviy-ruhiyatini o'zgartirmasdan turib jamiyatda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligiga asosiy e'tiborni qaratgan.

Prezidentimizning yana bir muhim konseptual g'oyasi ma'naviyat shaxsning eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o'z-o'zini anglatuvchi va o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqartiruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslaganligidir.

Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishiga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlikning shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Haqiqatan ham o'z Vatanini sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas'ulligini his etmagan har bir inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

² O'sha joyda .

Prezidentimizning ilgari surilgan konseptual g'oyalarni umumlashtiradigan bo'lsak, ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirishi;

- milliy – ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir. Ma'ruzachi Prezidentimiz asrlarida ilgari surilgan ana shu konseptual g'oyalarni asarlar bo'yicha mukammal bayon qilib berishi zarur bo'ladi.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o'tmishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilg'om manbai hisoblanadi. SHuning uchun ham Prezidentimiz "Hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzolalar, olimu-ulomalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan.

Dini va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi"¹ – deb ta'kidlaydi. Uning “O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir”² – degan g'oyalarida har bir vatandoshimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish zarurligi milliy ma'naviy tiklanishimizning bosh vazifasi ekanligini tushunib yetishga qaratilgandir.

Islom Karimov milliy mafkuraning milliy ma'naviy tiklanish va mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati va rolini ilmiy asoslashga katta e'tibor qaratadi. Milliy mafkura-millatni birlashtiradi, mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi.

Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashadi o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi"³ – deb ta'kidlaydi. Prezidentimiz o'z navbatida milliy g'oyaning vazifalarini aniq belgilab beradi: “...milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishlik oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur”¹ ligini belgilab beradi. Mamlakatimiz bugungi kunda totalitar tuzum hukmronligidan ozod bo'lib demokratik jamiyatni qurish sari dadil qadam tashlamoqda. Tabiiyki, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish, yana boz ustiga zo'ravonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma'rifatli inson manfaatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga o'tish oson kechmaydi, chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi. O'z umrini uzaytirish uchun jon jahdi bilan qarshilik ko'rsatadi, yangi jamiyat esa qisqa muhlatda qurilmaydi, balki ma'lum vaqtni, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoyilik bilan mehnat qilishlarini talab etadi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma'naviy e'tiqod va sabr-toqat bilan

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: “Sharq”, 1998, 3-4-betlar.

² O'sha asarda, 5, 10-betlar.

³ I.Karimov. Jamiyatimizni mafkurasini xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. Toshkent, O'zbekiston, 1998, 4,2, 15-betlar.

¹ O'sha asar. 15-bet.

odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat taffakkurini shakllantirish muhim vazifa darajasiga ko'tariladi.

Mamlakatimizda ana shu buyuk muammolarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Ularni muvaffaqiyatli hal etishda ertangi kunimiz davomchilari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz zarur. Shuning uchun ham prezidentimiz og'ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari murakkab holatda kechayotganliga qaramasdan kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tadbqiq etish masalasini asosiy vazifasi sifatida belgilab berdi hamda uni amalga oshirishda rahbarlik qilmoqda. U Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida bu dasturning ahamiyatini shunday ta'kidladi: "Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz".²

Prezidentimizning milliy-ma'naviy tiklanishi amalga oshirishga xizmat qiluvchi yana bir konseptual g'oyasi sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish zaruriyatini ilmiy asoslanganligidir. Uning sog'lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruhan baquvvat bo'lishi, yuksak bilim, ma'naviyat, tafakkur va fidoyi vatanparvar bo'lishi kabi talablarga javob beradigan avlodni nazarda tutiladi. SHuning uchun ham "... farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi"¹ - degan g'oyani ilgari suradi.

Milliy – ma'naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksak darajaga ko'tarish, ularning hozirgi zamon fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirishlari katta omil ekanligi Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslangan.

Haqiqatdan ham jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko'rsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya

² Barkamol avlod orzusi. T.: "Sharq", 1999, 9-bet.

¹ Prezident I.A.Karimovning Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi: - Xalq so'zi, 1999 yil 8 dekabr.

yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo'shadigan hissalari shunchalik samarali bo'ladi, ma'naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.

Prezidentimiz ishlab chiqqan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasida insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirish ham asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan, u "Fidokor" gazetasi muxbiri bergan savollarga bergan javoblarida dunyo xalqlari ma'naviy mulkiga aylangan faylasuflarning asarlari haligacha o'zbek tilida yoshlarmizga yetib bormaganligini qattiq tanqid qilib shunday ta'kidlaydi: "Dunyo tan olgan ko'p ulug' faylasuflarning asarlari hanuzgacha o'zbek tilida nashr etilmagani tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning g'oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas Sokrat va Platon, Nitsshe va Freyd kabi olimlarning hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o'zbek tilida chop etish nahotki mumkin bo'lmasa?"¹.

YUqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki Prezidentimiz milliy-ma'naviy rivojlanishimizni jahon xalqlarining ilg'or ma'naviyat tafakkuri taraqqiyoti bilan uyg'un ravishda rivojlantirish vazifasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanishning ilmiy-nazariy konsepsiyasi juda katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu mustaqillik yillarida ma'naviy taraqqiyotimizda qo'lga kiritilgan yutuqlar misolida o'z tasdig'ini topdi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy ma'naviy tiklanish va ma'naviy yangilanish konsepsiyasining juda katta nazariy va ma'naviy yangilanish konsepsiyasining juda katta nazariy va metodologik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Fikrimizcha ularning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu konsepsiya sobiq sho'rolarning totalitar tuzumi sharoitida boy milliy-ma'naviy madaniyatimizning inqirozga yuz tutganligini va uning sabablarini tushunishga;

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi– xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent: "O'zbekiston", 2000 yil, 34-35-betlar.

ikkinchidan, sobiq sho'rolarning o'tkazgan zo'ravonligi, zulmi va jinoyatkorona xatti-harakatlariga qaramasdan, milliy-ma'naviy merosimizning ildizlari mustahkam bo'lganligi uchun bu zo'ravonliklarga bardosh berib, o'z salohiyati va xususiyatlarini saqlab qololganligini tushunib yetishga, xuddi shuningdek, ana shu omil mustaqilligimiz sharoitida kuch, qudrat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularimiz uchun manba bo'layotganligini tushunib yetishga;

uchinchidan, har bir millat, u son jihatdan kichikmi, yoki kattami undan qat'iy nazar mustaqillik ularning har biri uchun havo va suvdek zarur ekanligini, faqat mustaqillik millatni milliy-ma'naviyatini saqlab qolishga, uni rivojlantirishga va keyingi avlodga yetkazish baxtiga muyassar etadigan asosiy omil ekanligini tushunishga, bu esa har bir millatdoshimiz va vatandoshimizning mustaqillikdek ulug' ne'matni saqlab qolishi uchun fidoyilik ko'rsatishi ma'naviyatning yuksak belgisi ekanligini qalban his etishga imkon beradi;

to'rtinchida, milliy-ma'naviy tiklanishning mohiyatini, "ma'naviyat" tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini bilib olishga, uni rivojlantirish uchun marosimizni chuqur o'zlashtirish, tinmay izlanish, ma'rifat, fan, texnika va texnologiya yutuqlarini sabot bilan o'zlashtirish hamda Prezidentimizning bugungi taraqqiyotimizni ta'minlaydigan "kuch – bilim va tafakkurda" – degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan konseptual g'oyasiga izchillik bilan amal qilishimiz;

beshtinchidan, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash va islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy-ma'naviy tiklanishimiz oldida turgan vazifalar ko'lamini bilib olishga va uni amalga oshirishda umummilliy safarbarlik harakatini avj oldirishda fidoiylilik ko'rsatish zarurligi;

oltinchidan, talaba yoshlarning milliy-ma'naviy tiklanish borasida ular oldida turgan vazifalarni bilib olishga, milliy g'urur, iftixor, fidoyilik, vatanparvarlik, insoniylik kabi oliyjanob fazilatlarni shakllantirish – mustaqilligimizni mustahkamlash va taraqqiyotimizning asosiy sharti ekanligini tushunib yetish;

ettinchidan, milliy istiqlol g'oyasining ma'no va mazmunini chuqur anglashimizga, mustaqillikni mustahkamlash jarayonida ma'naviy yangilanishimiz

borasidagi strategik vazifalarimizning asosiy yo'nalishlarini va ko'lamini chuqur bilib olishimiz hamda ularni amalga oshirishda fidoiylilik ko'rsatishimizning ahamiyatini tushunib yetishimiz zarurligi kabilardir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilgan milliy ma'naviy tiklanish ilmiy-nazariy konsepsiyasi juda katta nazariy, metodologik va amaliy ahamiyatga egadir. Bu konsepsiya kelajakda masalani yana ham chuqurroq o'rganishimiz uchun asos bo'ladi.

Milliy ma'naviy tiklanishimiz borasida prezidentimiz tomonidan amalga oshirgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar qatoriga yana quyidagilarni qo'shish lozim bo'ladi:

a) milliy-ma'naviy tiklanishimizning ilmiy-nazariy konsepsiyasini ishlab chiqqanligi va istiqbolda ma'naviy taraqqiyotimizning XXI asrdagi vazifalarini belgilab berganligi;

b) milliy-ma'naviy tiklanishning mamlakatimizning totalitarizmdan demokratik jamiyatga o'tish sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab berganligi va uning faqat milliy, ijtimoiy-ma'naviy tafakkurimizda emas, shuning bilan birga umumijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida yangi yo'nalish boshlab berganligini ham ta'kidlash lozim bo'ladi.

Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan barcha ishlar xalqimizning qaddini ko'tarmoqda, o'zligini anglashga va mamlakatimizning rivojlanishiga xizmat qilmoqda, millatimiz abadiyligini mustahkamlamoqda.

3. Milliy ma'naviy qadriyatlar tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi

Demak, «Qadriyat» tushunchasi - juda keng tushuncha bo'lib, uning bir qismi - ma'naviy qadriyatlardir. Milliy-ma'naviy qadriyatlar - «milliylilik», «Ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

«Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalar va me'yorlar milliy ma'naviy qadriyatlardir.

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg'iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. YOsh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy g'oyani ob'ektiv anglashda qadriyatlar va ma'naviyat olamini bilish va uni amaliy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.¹

Qadriyat turlari:

Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.

An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar.

¹ Назаров Қ., Очилдиев А. Миллий истиклол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. – Т.: «Янги аср авлоди», 2002, (177- 178 – бетлар).

Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, hayrihohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'lik bo'lgan qadriyatlar.

Qadriyatlarni xilma-xil shakl va turlarga ajratib o'rganish mumkin:

Umuminsoniy qadriyatlar.

Mintaqaviy qadriyatlar.

Milliy qadriyatlar.

Diniy qadriyatlar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega. O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Masalan, «Avesto» bundan 2700 yil muqaddam 12 ming mol terisiga oltin xarflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, hottotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi.

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'rayadi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ladi.

Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asarida xalqning madaniy qadriyatlari, madaniy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviy kuch bo'lganligiga alohida e'tibor berdi.

Bunda 1) sobiq mafkura tazyiqini; 2) ma'naviy va madaniy merosni tiklash O'zbekiston davlati siyosatida muhim vazifa sifatida belgilab olinganligini chuqur o'rganish, yoshlarni unga e'tiborini jalb etish muhim.

Jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni tiklashga milliy g'oya jarayoni sifatida qarashda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:

Xalqimiz istiqbol tufayli siyosiy mustaqillikni qo'lga kirit-ganligi.

O'z taqdirini o'zi belgilashning chinakam egasi bo'lganligi.

O'zining ma'naviy-tarixiy ildizlarini o'rganish imkoniyati yuzaga kelganligi, ammo uning juda murakkab jarayonlarda amalga oshirilayot-ganligi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida «siyosiy, madaniy ekstremizm xavfi» tug'ilishi mumkinligining hisobga olinganligi respublikada mustaqillikni saqlab qolishda, barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini chuqurroq, atroflicha, aniq misollar yordamida yoritish o'zining amaliy ahamiyatiga ega.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

Tarixiy meros va tarixiy xotira.

Madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar.

Ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari.

San'at va milliy adabiyot.

Axloqiy fazilatlar.

Diniy qadriyatlar.

Urf-odat, an'ana va marosimlar.

Ma'rifat, ta'lim-tarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlarning ana shu har bir ko'rinishi muhim ahamiyatga ega. Bularning har birini misollar tariqasida chuqur tushuntirib berish mumkin.

Demak, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillari quyidagilardan iborat:

Insonparvarlik tamoyili.

Vijdon erkinligi.

Fikrlar rang-barangligini qaror toptirish - demokratik jamiyat barpo etishning asosiy sharti.

Umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyili.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik.

SHaxs qadriyatlari, inson ma'naviy olami bilan bog'liqligi.

Oila - jamiyatning muqaddas uyi, eng asosiy tarbiya maskani.

Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlash-tirish.

Hayotni erkinlashtirish.

Shaxs erkinligiga tayanadi.

Mustaqillik tufayli milliy-ma'naviy tiklanishga imkoniyat yuzaga keldi. Prezidentimiz Islom Karimov "ma'naviy o'nglanishni amalga oshirmasdan iqtisodiy o'nglanish mumkin emas"ligini aytib, "ma'naviyat xalqni, millatni millat qiladigan kuch-qudratdir" degandi. Shu sabab mustaqillik yillarda johon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allamalarning merosini yangidan ijodiy o'zlashtirish o'ayotiy ehtiyojga aylandi. Imom Buxoriy, at. Termiziy, B.Naqshband, Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy kabi buyuk zotlar merosini o'rganio' demokratik jamiyatning milliy ma'naviy negizlarini tashkil qiladi. Prezident Islom Karimov 1992 yilda yozgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy negizlarini ko'rsatib bergan edi:

- 1) umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik,
- 2) xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish,
- 3) insonning o'z imkoniyatlarin erkin namoyon qilish,
- 4) vatanparvarlik.

Bu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda muhim vazifa va manba hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar - millat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar shakllidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. SHu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy shakllar va umuminsoniy shakl mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlarning eng yetuklari va milliy manfaatlarga, moslari asta-sekin saralanib, umummilliy darajaga ko'tariladi. Milliy muhit qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbaidir: u milliy qadriyatlarning eng yaxshilarini voyaga yetkazib, jahon miqyosiga olib chiqadi.

Bu tamoyil va qadriyatlar O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab - avaylashi, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rganish, ular zamiridagi bu tamoyilning asosiy jihatlaridir. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf-odatlari, an'analarini hurmat qilishni ta'minlash milliy istiqloq mafkurasining amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asoslar yaratadi.

Demak, o'zbek xalqining milliy xususiyatlarida:

1. Oila - muqaddas tushuncha. Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ish. «Oila - eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. YOshlarni

tarbiyalashda, kamolga yetkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir...

2. Mahalla - o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon.

3. Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. «YOn qo'shnim - jon qo'shnim», «Xovli olma - qo'shni ol», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal» va h.k.

4. Keksalarga hurmat - inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yagi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azish jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish - insoniy fazilatdir. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz. «Keksani qopda saqla, o'ligini hafta saqla»...

5. Ayol zotiga ehtirom - insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori cho'qqisidir. Demokratiyaning eng muhim yutug'i - har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo'lishini ta'minlashdir...

6. Onaga bo'lgan hurmat va sadoqat - eng oliy qadriyatdir. SHuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda ona nomi qo'shiladi. Milliy istiqlol g'oyasi onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun farovon hayot, go'zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlarning erkinligi va o'z qadr-qimmatini anglab yetishiga, o'z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sharoit yaratishni bosh g'oyasida mujassamlashtirgan.

Demak, milliy qadriyatlar insonning inson sifatida o'zini anglashi, o'z-o'zini himoya qila olishi, erishgan zafar yo'li va mag'lubiyatlari, sitamli damlarining yodnomalaridir.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi bilan bog'liq milliy bayramlar ham bor: Mustaqillik bayrami, Navro'z, Mehrjon, Boychechak, Gul sayli va boshqalarni nishonlash an'anaga aylanib bormoqda.

«An'ana» - o'tmishning keajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. «Madaniyat» (arab. «madina» va «iyat» - shaharga oid ta'lim-tarbiya ko'rganlik) - turlicha talqin etiladigan, murakkab va ko'p ma'noli tushuncha. An'anaviy madaniyat manbai abadiy emas, ijtimoiy muhitlar, jarayonlar, siyosatlar natijasida o'zgarib boradi. An'anaviy madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilab olishda tarixiy taraqqiyot bosqichi ta'sirida o'zgarib borgan an'ana, urf-odat, moddiy va ma'naviy boyliklarga yangicha mezonlar orqali yondashmoq kerak. Xalqimiz tarixida ana shunday «an'anaviy madaniyat»ni saralash bosqichlari 3 ta tarixiy davrni bosib o'tgan.

4. Qadriyatlar – insonni ma'naviy – axloqiy barkamolligi negizi

Jahon madaniyatining rivojiga jamiki xalqlar baholi qudrat o'z ulushlarini qo'shganlar. Ammo bunda Sharq mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining hissasi alohidadir.

Markaziy Osiyo jahonning ilmu fan, falsafa, din, adabiyot va san'at qadimdan rivojlangan, tarixi nihoyatda boy mintaqalaridan biridir. So'nggi tarixiy va arxeologik tadqiqotlar ana shu muqaddas zaminda odamzodning ilk faoliyati bir million yilga yaqin ekanligidan dalolat beradi.

Juda ko'plab og'zaki va yozma manbalar, turli asori-atika obidalardan ma'lum bo'lishicha Dneprdan Oltoygacha bo'lgan mintaqada skiflar, Kaspiy orti tekisligida massagetlar, ulardan sharqroqda saklar, so'g'dlar, baqtiriyaliklar, xorazmiylar, parfyanlar yashaganlar.

Hozirgi markaziy osiyoliklarning o'tmishdagi ana shu ajdodlari asrimizdan biri necha ming yillar ilgari sug'orishga asoslangan dehqonchilik hamda chorvachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Hozirgi tojik, o'zbek, turkmanlarning ajdodlarida sug'orma dehqonchilik madaniyati shu qadar rivoj topganki, hatto birgina Araks (hozirgi Amudaryo) havzalarida juda ko'plab sun'iy sug'orish kanallari, suv inshootlari qazilib cho'l va sahrolarga suv olib chiqilgan.

Shu tariqa moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilgan. Ajdodlarimiz yashagan hududlarda qadimda xilma-xil madaniyat o'choqlari tarkib topgan va rivojlangan.

Mintaqamizda miloddan avvalgi V ming yillikda mintaqamizning markaziy va shimoliy rayonlarida esa miloddan avvalgi III ming yillikda qishloq xo'jaligi bilan birga hunarmandchilik, konchilik, mis va temir eritish, metallardan har xil harbiy va mehnat qurollari yasash, kemasozlik, to'quvchilik, binokorlik, zargarlik ham taraqqiy eta boshlagan. Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm kabi dastlabki davlatlar, Toshkent, Xiva, Marokand (Samarqand), Kiropol (hozirgi O'ratepa) va boshqa shaharlar paydo bo'lgan. Dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri mana shu mintaqada vujudga kelgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining eng buyuk madaniy muvaffaqiyatlaridan biri yozuvni ixtiro etganliklaridir. Bu yerda yozuvning tarixi juda qadim zamonlardan boshlangan. Miloddan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi keng tarqalgan. Iskandar Zulqarnayn, Aleksandr Makedonskiy) istilosidan keyin yunon yozuvi ham kirib kelgan. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy

yozuvi negizida Avesto, Xorazm, Sug'd, Kushon, Urxun-Enisey, Uyg'ur yozuvlari vujudga kelgan. Yozuvning ixtiro qilinishi, inson bilim doirasi va dunyoqarashi kengayishi va chuqurlasha borishiga xizmat qilgan.

Ko'rinib turganidek, Markaziy Osiyo xalqlarining, xususan, o'zbeklarning madaniyati tarixi ildizlari, ijtimoiy, falsafiy, ahloqiy, diniy, badiiy qarashlari va fikrlari shakllana va rivojlana borishining ilk davrlari qadim zamonlarga borib taqaladi.

Avlodu ajdodlarimizning qadim ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatlar, an'analar, madaniyati, tili, tarixi badiiy-falsafiy jihatdan o'ziga xos tarzda aks ettiradigan og'zaki ijodiyotni nihoyatda boy va xilma-xildir. Miflar, afsonalar, qahramonlar to'g'risidagi dostonlar, to'y hashamlarda, xalq yig'inlarida, bayramlarda, safarlarda aytilgan ashula – qo'shiq va laparlar, lirik she'rlar, maqol va matallar, masala va topishmoqlar halq og'zaki ijodiyoti madaniyatning eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohalaridir. Ularning ijodkori, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga avaylab-asrab o'tkazuvchi asosiy kuch-barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi, bitmas-tuganmas manbai bo'lgan xalqdir.

Tarix qa'ridan, necha-necha o'tmish davrlardan bizgacha eson-omon yetib kelgan miflar, afsona va rivoyatlar, dostonlar, ertak, maqol va qo'shiqlar, o'tmishning shunchaki bir aks-sadosi emas, balki xalq ko'nglidagi qayg'u-hasrat va shodlikning yo'ldoshi, uning bilim qomusi, uning diniy va falsafiy kitobi hamdir.

Xalq og'zaki ijodiyotining namunalari bo'lgan ertaklar, rivoyatlar va dostonlar bilan tanishar ekanmiz, xalqda voqealarni oldindan ko'ra biluvchi ajoyib qobiliyat va iste'dod bor ekanligini, u hech qachon orzu-umidsiz yashamaganligini, har doim kelajak tomon intilganligini anglab olamiz. Har qanday mif, ertak va afsoning, qadimgi rivoyatning zahirida xalqning muayyan maqsad va niyatlari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bo'lgan munosabatlari, mehnat mashaqqatlarini yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilishlari yashirinib yotgan bo'ladi. Ular xalq ommasining dahosi, uning talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelishi bilan bir qatorda, o'z navbatida ularning o'zi kishilarning ma'naviy, aqliy, axloqiy, axloqiy taraqqiyotiga

to'rtki vazifasini ham o'tagan; mehnatni sevishga o'rgatgan, tabiatning xatarli kuchlariga qarshi kurashish va ularni oldini olishdan kishilarga yordam bergan, olamda ro'y berib turadigan murakkab hodisa va jarayonlar sir-asrorlarini bilib olishga da'vat etgan, inson, fikri, tafakkuri va xayolotini o'tmishdan kelajakka tomon tortgan, hayotni sevishga chorlagan.

Miflar, ertak va rivoyatlar, termalar, dostonlar, barcha folklor asarlari o'tmishning eng katta tarixiy hujjati, ajdodlarimizdan bizga qolgan nodir boylikdir. Jamiki san'at asarlari va madaniyat yodgorliklarini hech ikkilanmay inson ko'nglidagi shodlik va quvonchning, g'am va anduhning ifodasi, inson aql-idroki diniy qomusi, bitmas-tuganmas hikmatlar xazinasi, deb aytish mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotining eng qadimgi turlaridan biri – mifdir. Yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik o'rtasidagi kurash va bu kurashda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi g'oya dunyoning boshqa xalqlarida bo'lganidek, bizning miflar uchun ham xarakterlidir. Qayd etilishicha, yaxshilik olamiga Axuramazda yomonlik olamiga esa Axriman boshchilik qiladi, baxt va baxtsizlik, hayot va mamot shu qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash va uning oqibatlariga bog'liq. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi jangu jadallar ezgulik uchun kurashadigan Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid, Gershasp obrazida va baxtsizlik timsoli bo'lgan Axriman, dev, ajdar, jinlar bilan bog'liq miflarda o'z ifodasini topgan.

Ezgulik miflarida Mitra kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat baxt etadigan, dushmanlarga dahshat soladigan, kishilarni ofatdan qutqaradigan quyosh xudosi sifatida, anaxita esa yer, suv va hosil ma'budasi, qahramonlarga kuch-quvvat va muvaffaqiyat baxsh etuvchi tarzida tasvirlanadi. Miflarda tasvirlanishicha, kayumars Axuramazda tomonidan yaratilgan birinchi odam va insoniyat ibtisodir. Jamshid – Yima – adolatli hukmrondir. Yimaning hukmronlik davri oltin davr hisoblanadi. U davrda odamlar go'yo o'lim va qarilik nimaligini bilishmagan. U yer yuzini uch baravar kengaytiradi, chorvani va turli xil qushlarni nihoyatda ko'paytiradi.

Ko'pchilik Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi Markaziy Osiyoda ham qadimda yer, osmon, quyosh, yulduz va sayyoralar haqida kosmogonik miflar vujudga kelgan. Ularda insonlarning tabiiy muhit, koinot, samoviy hodisalar haqidagi o'y-fikrlari, hayolotlari ifodalangan. Insonlar taqdiri, qismatini yulduzlarga qarab bashorat qilish mumkinligi, baxt yulduzi haqida qanchadan-qancha afsonalar va rivoyatlar yaratilgan. Mifologiyada insonlarga rizq beradigan yer, nur va issiqlik beradigan osmon benihoya e'zozlangan, ota Quyoshga, ona esa oyga qiyoslangan.

Markaziy Osiyoda bir necha ming yillar osha yuzaga kelgan tarixiy taraqqiyot jarayonida mif va afsonalar ijodiy qayta ishlangan, yangi-yangi voqea va ma'lumotlar, fikr-tushunchalar va g'oyalar bilan boyib, takomillashib insoniyat ma'naviy madaniyatiga hissa bo'lib qo'shilgan.

“To'maris”, “Shiroq”, “Zariagr va Odatida”, “Zarina va Striangiya”, “Uch og'a-ini botirlar”, “Qahramon”, “malikai Husnobod” kabi qissalar va “Alpomish”, “Qirqqiz”, “Go'ro'g'li”, “Ravshan”, “Avazxon”, “Chambil qamali”, “Oysuluv” singari dostonlarida ham milliy, ham umumbashriy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy g'oyalar ilgari surilgan.

Qahramonlik haqidagi dostonlarning, ertaklar va afsonalarning falsafiy mohiyatini belgilaydigan, ularning asosiy negizini tashkil etadigan umumiy g'oya – inson uchun jondan aziz hisoblangan muqaddas dargoh – Vatanning istiqloli va istiqboli, erki va mustaqilligi uchun ajnabiy dushmanlarga qarshi murosasiz kurashish har erkagu ayolning, kattayu kichikning oliy insoniy burchi ekanligi haqidagi fikr-mulohazalardir.

Markaziy Osiyo xalqlarining bosqinchilarga qarshi kurashini badiiy aks ettiruvchi To'maris va Shiroq to'g'risidagi rivoyatlar fikrimizga misol bo'ladi.

O'rta Osiyoda yashagan qadimgi avlod-ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatlari, e'tiqodi, tarixi, madaniy merosi, jumladan, falsafiy fikrlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishda “Avesto”, “Baxaristun”, “Bundaxishn”, “Denkard” singari yozma yodgorliklar muhim tarixiy hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

VI-VIII asrlarda yaratilgan, qadimiy turkiy tilda yozilgan o'ziga xos xatda bitilgan Urxun-Enisey yodgorliklarida turkiy xalqlarning falsafiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari, elu-yurtiga muhabbati, qahramonliklari, xorijiy bosqinchilarga qarshi qahru nafrati o'z fiidasini topgan.

Avval qayd etganimizdek, "Avesto", Urxun-Enisey yodgorliklari va boshqa yozma yodgorliklar qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, tili, qadriyatlari, falsafiy, axloqiy, diniy qarashlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. YOzma yodgorliklar faqat o'tmishni tushunish uchungina emas, balki bizning bugungi kunimizning, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi ma'naviy masalalarini hal etish, milliy istiqlol mafkurasini ishlab chiqish uchun ham foydalidir.

Yuqorida aytilganlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, Markaziy Osiyo mintaqasi Sharq mamlakatlari kabi azaldan yuksak madaniyat, ilm-fan, barcha qadriyatlarning maskani bo'lib kelgan.

Xullas, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizning ijodkorlari, yaratuvchilari bo'lgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari buyuk kashfiyotlar qilib, jahon falsafasi va madaniyatini rivojlantirishga bebaho hissa qo'shdilar. Ularning katta ilmiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy-ma'naviy merosi xalqimizning buyuk iftixoridir.

IX-XV asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotida, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, diniy, falsafiy ta'limotlari rivojlanishida keskin o'zgarish, tub burilish davri bo'ldi. Bu madaniy jonlanish va yuksalish jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bordi, ma'naviy hayotni qamrab oldi. Ana shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. Markaziy Osiyoning jahon madaniyati taraqqiyotining yirik o'choqlaridan biriga aylanishi huddi shu paytlarga to'g'ri keladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "mustaqilligi-mizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati

darajasiga ko'tarilgani nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi"⁵. Natijada xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakamegasi, o'z taqdirining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi.

Istiqlol diyorimizning ulug' farzandlari, buyuk siymolarining nomlarini faxru iftixor bilan tilga olishga, tavalludlarini umumxalq tantanasi sifatida keng nishonlashga, ularning asarlarini ona tilimizda chop etib, xalqimiz ma'naviy kamolotini ta'minlashga qulay imkoniyatlar yuzaga keltirdi. SHuningdek, mustaqillik sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzum hukmronlik qilgan yillardagi xalqimiz tarixiga, madaniyatiga biryoqlama yondoshishdek ijtimoiy illatdan ongimizni xoli etdi.

Mustaqillik bizning milliy-ma'naviy ildizlarimiz naqadar teran, naqadar baquvvat ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib berdi.

"Biz, - deydi I.karimov, - boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu fan barq urib yashnagan, tibiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'ribu mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi".⁶

Mazkur asarning oldingi sahifalarida keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, o'lkamiz olimlari nafaqat tabiiy ilmlar, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida (jumladan, falsafa, mantiq, huquqshunoslik, san'atshunoslik, tarix va hokazolar) ham o'zlarining ilmiy maktablarini yaratib jahon madaniyatini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shib kelganlar. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari SHarq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan. Endilikda bizning vazifamiz ana shu an'anani yanada taraqqiy ettirib o'z xalqimiz tafakkuriga mos, tushunarli va yaqin bo'lgan SHarq falsafasi bilan bir qatorda islom ta'limotidan ham bekamu ko'st foydalanmog'imiz lozim.

⁵ И.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент.: "Ўзбекистон", 1997, 137-138-бетлар.

⁶ И.Каримов. Истиқлол ва маънавият; 96-бет.

“Bizning kelajagi buyuk davlatimiz – deydi I.karimov, - ana shu falsafaga uyg’un holda, Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg’un holda shakllanishi lozim”.⁷ Darhaqiqat, islom ta’limoti ming yillar mobaynida xalqimiz yaratgan boy madaniy va mafkuraviy merosdir, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi ijobiy rolini aslo inkor etib bo’lmaydi. Akademik Izzat Sulton ta’kidlaganidek, “Diniy e’tiqodlarga keng yo’l ochilgan, din bizning madaniyatimizning ajralmas qismi bo’lib qolgan bugungi kunda bizga diniy e’tiqod bilan sug’orilgan, ollohni tanishga asoslangan axloq zarur. Xalqimizning butun tarixi mobaynida ishlangan, asrdan-asrga boyitib va mukammallashtirib borilgan axloq bugungi va kelajagimizdagi axloqiy qoidalarimizga asos bo’la oladi”⁸.

Mustaqillik bizga ma’naviy mulkimizni tariximizni, ulug’ bobolarimiz ruhini shod etish imkoniyatini qaytarib berdi. Istiqlol tufayli tariximizga munosabat ijobiy tomonga o’zgardi.

Bugungi kunda ulug’ bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubroning insonni ma’naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlari qaytadan jaranglay boshladi.

Avlod-ajdodlarimiz tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. Xalqimizning kechmish tarixi va hayotini aks ettirgan asarlarning o’z ona tilimizda nashr etilayotganligi quvonchimizga quvonch qo’shmoqda.

5. Milliy g’oya va ma’naviy hayot

⁷ И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т., 1995, 9-бет.

⁸ Иzzat Султон. Баҳоуддин Нақшбанд адабиёти. Т., 1994., 81-бет.

Milliy g'oya muayyan tushunchalarga asoslanadi. Ular turli xil bo'lib, jamiyatda shakllangan va mavjud bo'lgan fikrlar xilma-xilligi bilan kishilarning o'zaro ijtimoiy munosabatlari asosida amaliy xatti-harakati orqali namoyon bo'ladi.

Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o'zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi.

Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz.⁹

«Milliy g'oya va istiqloл mafkurasi haqida gap borar ekan, deb ta'kidlaydi YUrtboshimiz, - biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi»¹. Binobarin, milliy g'oyaning asosiy tushunchalari va qonunlarini o'rganish nisbiylik xususiyatiga egadir.

Milliy g'oyani o'rganishda quyidagi tushunchalarni hisobga olish zarur:

- turli jamiyatlar, xalqlar hayoti, milliy-madaniy qadriyatlari, maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan turli xil ma'no-mazmunga ega umumiy tushunchalar: «g'oya»,

⁹ Саранг: Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 71-бет.

¹ Каримов И.А. Ватан равнаси учун iar биримиз маъсулмиз. Т.9. -Т.: «Ўзбекистон», 2001, 221-222 б.

«mafura», «g'oyaning turli xil ko'rinishlari», «bunyodkor g'oyalar» va «yovuz, tajavvuzkor g'oyalar», «milliy g'oyalar» va «umumbashariy g'oyalar»;

- jamiyatning siyosiy hayoti, turli xil jamoat birlashmalari faoliyati bilan bog'liq maqsad va intilishlarni ifoda etadigan turli-xil siyosiy mafkuralar ko'rinishlari;

- O'zbekiston xalqining hayoti bilan bog'liq bo'lgan, uni o'zida aks ettiradigan va unga xizmat qiladigan «milliy g'oya», «milliy g'oyaning ma'naviy negizlari», «milliy rivojlanish g'oyasi», «milliy istiqlool mafkurasini», «milliy g'oyaning asosiy g'oyalari», «milliy g'oyaning bosh g'oyasi», «milliy g'oyaning umumbashariy tamoyillari» va boshqa tushunchalar.

Milliy g'oya bilan bog'liq tushunchalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki u asosan O'zbekiston xalqi ijtimoiy, hayot sohalari rivoji bilan, uning milliy-madaniy merosi, urf-odatlarini, qadriyatlarini, tili, madaniyati, tarixi, falsafasi, diniy ruhiyati bilan uzviy bog'liq. Milliy g'oya milliylikni, milliy rivojlanish xususiyatlarini e'tirof etadi va unga hurmat bilan qaraydi. Milliy g'oya «sinfiylik», «partiyaviylik» tamoyillariga asoslanmaydi. Boshqa mamlakat xalqlarining hayotiga o'z g'oyalarini singdirishni da'vo qilmaydi. Bu bilan u «kommunistik g'oyadan» tubdan farq qiladi. Milliy g'oya O'zbekiston Respublikasi nomini olgan o'zbek xalqi, millatining milliy-madaniy merosiga tayangan holda boshqa xalqlar madaniyati, maqsad va intilishlari bilan o'zaro mushtarak tarzda mamlakat ravnaqining ma'naviy-ruhiy, falsafiy omili sifatida xizmat qiladi.

Milliy g'oyani o'rganishni taqozo etadigan umumiy va o'ziga xos qonuniyatlar mavjud. Umumiy qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiy asosga ega bo'lgan ichki zaruriy bog'lanishlar bo'lib, u jamiyat va mafkuralar (g'oyalar) ning bir-birlari bilan uzviy bog'liqligi qonunidir. Jamiyat mafkurasiz, maqsadsiz yashay olmaydi. Demak, birinchidan mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdagi mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin. Buni

isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko'plab misollar keltirish qiyin emas.¹ U jamiyat oldidagi maqsadlar, uni amalga oshirish vositalaridir.

Milliy g'oyaning tushunchalari bilan bir qatorda uning namoyon bo'lish qonunlari ham mavjud. Bular:

- Turli xalqlar, turli jamiyatlar mavjud. Ularning maqsadlari ham rivojlanish yo'llari ham turli xil. YA'ni rivojlanishning, ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xilligi qonuni orqali namoyon bo'ladi;

- Dunyoning mafkuraviy manzarasi turli xil maqsadlar, turli-xil manfaatlar, qarashlar bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan va bo'lib qolmoqda. Bu ezgu g'oyalar bilan birga yovuz g'oyalarning ham yashovchanligini, «dunyoda mafkura sohasida kurashning» davom etib kelayotganligining asosida yotgan o'ziga xos jihatidir.

Lekin, har bir xalqning o'ziga xos ma'naviy ruhiyati, merosi, qadriyatlari bilan bog'liq g'oyasi ham mavjud. Uni inkor etib bo'lmaydi. Uni anglamaslik u bilan bog'liq bo'lgan turmush tarzini, madaniyatidagi xususiyatlarini, tarixini, tilini, milliy-madaniy rivojlanish qonuniyatlarini e'tirof etmaslikka olib keladi. Bu oxir-oqibatda shu xalqni yoki mamlakatning «o'zligini» tan olmaslikka sabab bo'ladigan yo'ldir.

Globalashuv jarayonining milliy g'oyaga ta'sir etishi ham o'ziga xos umumiy qonuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar hayotida ularning bir-biriga bog'liqligini, o'zaro ta'sirini oshiradi, ma'naviy, g'oyaviy hayotida aks etmasdan qolmaydi.

Milliy g'oya to'g'risida fikr yuritganda, uning o'zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, milliy-madaniy merosi va qadriyatlari bilan bog'liq bo'lgan hamda milliy g'oyasida aks etadigan o'ziga xos qonuniyatlari ham mavjud. Bu qonuniyat milliy g'oyaning mazmuni, maqsadi va xususiyati nuqtai nazaridan qaraganda alohida, ustuvor ahamiyatga ega. Chunki, bu qonuniyatni hisobga olish o'zbek xalqining, millatning kelajagi bilan o'zligini saqlab qolish hamda o'z negizida rivojlanishini, dunyoda o'ziga xos o'ringa ega bo'lishni e'tirof etish bilan

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз ёўлимиз билан ёурамиз. Т.7. -Т.: «Ўзбекистон», 1999, 84-85 б.

bog'liq. Tarixiy jihatdan yondashganda, bu sohada «turli g'oyalar», «mafkuralar» ana shu muhim qonuniyatlarga zid bo'lgan holatlarni ham kuzatilishini ko'rsatadi. O'zbek xalqini tilidan, madaniyatidan, tarixidan ajratib qo'yishga bo'lgan urinishlar bunga misoldir. Chunki, yot va begona g'oyalar xalqning turmush tarzi, milliy-madaniy qadriyatlaridan ajratib qo'yish orqali uni zaiflashtirishga va o'z irodasiga bo'ysindirishga harakat qilgan. YOt va begona g'oyalar ba'zi xalqlarning millat sifatida rivojiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun ham milliy g'oyaga tayanish va unga amal qilish O'zbekiston xalqining o'zligini saqlab qolish va o'ziga xos va mos rivojlanish ehtiyoji sifatida namoyon bo'ladi. Demak, milliy g'oyaning qonuniyatlari har bir xalq uchun milliy o'ziga xosligini zamon yutuqlari bilan bog'lashning nafaqat kafolati, balki rivojlanish strategiyasi hamdir.

Milliy g'oyaning amal qilish prinsiplarining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi jamiyatning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning g'oyaviy jihatlarini belgilash bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan milliy g'oyaning prinsiplari bir-biri bilan uzviy dialektik aloqadorlikda deyish mumkin. Ular o'z navbatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi talablariga mos kelishi bilan uzviy bog'liq.

Milliy g'oyada insonparvarlik, inson qadr-qimmat, sha'ni va or-nomusi, haq-huquqlari hamda manfaatlarining ustuvorligi prinsipiga tayanadi. Unda insonning hayoti oliy qadriyatdir. Bu prinsip o'tkinchi xarakterga ega bo'lmay, balki O'zbekistonning demokratik rivojlanish istiqbolini o'zida mujassam etadi. Bunda milliy g'oyaning insonparvarlik va demokratik prinsiplari inson va jamiyat manfaatlarini uyg'unligini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi omil vazifasini o'taydi. Demak, milliy g'oya ikki muhim, bir-biri bilan bog'liq negizga tayanadi. Bu bir tomondan, O'zbekiston xalqining tarixi, turmush tarzi, urf-odat, an'analari, madaniyati bilan bog'liq milliy-madaniy merosi bo'lib, bu uning asosi, bosh negizi, tayanchi hisoblanadi. Ikkinchisi, dunyo xalqlari e'tirof etib, faqat ezgulikka, bunyodkorlik ishlariga, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan umuminsoniy tamoyillardir. Shu ma'noda milliy g'oya umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik - milliy g'oyaning tayanch negizlaridan biridir. Bu prinsip O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdan qolgan buyuk madaniy boyliklarimiz, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni ijodiy jihatdan o'rganish - bu prinsipning asosiy jihatidir. Lekin u narsani umumqonuniyat sifatida hisobga olish kerakki, umumbashariy qadriyatlar avvalo milliy-ma'naviy negizda shakllanadi. Xalq, millatning ruhiyati, uning milliy-madaniy merosi orqali uning hayotida, maqsad va orzularida, jamiyat qurilishida o'zining aniq ifodasini topadi. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida u yoki bu xalqlarga xos bo'lgan milliy-ma'naviy qadriyatlardagi umuminsoniy mohiyati dunyo xalqlari rivoji uchun umumbashariy qadriyat sifatida xizmat qiladi. Ular bir-birini boyitadi, ayni paytda o'zaro mushtaraklikka ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.¹⁰

Milliy g'oyaning turli xil fikr, g'oyalarga munosabati, uning ijtimoiy ma'naviy hayotda aks etish usullarini anglash uchun eng avvalo, turli xildagi g'oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganmoq zarur. Ma'lumki, har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki, shaxsiy fikr - o'ziga xos qarashdir, ijtimoiy fikr esa - voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. Foyda ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.¹ Jamiyat hayotida turli xil fikr, va g'oyalarning o'rni muhim. Lekin, ma'lum bir fikr mutlaqlikka intilsa yoki yakka hukmronlik qilsa, u jamiyat rivojiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demoqchimanki, «ikki odam aynan bir xilda fikrlamagani kabi turli xalqlar, mamlakatlar ham aynan bir-biriga o'xshashi, ya'ni bir xil tarixga, madaniyatga, ega bo'lish qadriyatlarni e'zozlashi, umumiy maqsadni ko'zlab ijtimoiy, rivojlanish yo'lini andoza sifatida olishi va faqat unga tayanishi mumkin emas. Bu taraqqiyotning xilma-xilligi qonuniga to'g'ri kelmaydi.

¹⁰ Саранг: Эргашев И. Миллий истиёлол жоysi ва раiбар фаолияти. –Т.: Академия, 2007.

¹ Миллий истиёлол жоysi: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: «Ўзбекистон», 2001. 9-б.

Milliy g'oyaning o'ziga xos jihati ham shundaki, u fikrlar va g'oyalar xilma-xilligini tan oladi. Jamiyat mafkurasi sifatida biron-bir fikr, g'oyani e'tirof etmaydi. Erkinlik, xususan, fikr erkinligi va xilma-xilligi prinsiplariga amal qilish milliy g'oya uchun muhim. Fikr erkinligi va g'oyalar xilma-xilligiga asoslanish taraqqiyotni ta'minlab turuvchi, inson salohiyatini oshiruvchi noyob imkoniyatdir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qo'lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qayerda yengil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari ham shuni taqozo etadi. Masalan, dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Ovrupo mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklash rejasi ham buning amaliy namunasi bo'ldi.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi. Biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-ko'rona ko'chirib olish to'g'ri emas. Aksincha, aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi.

Jahon xalqlari va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda *o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir*. Bu - o'tmish yillarining xatolarini, davlat tuzilishining shakl va usullariga nisbatan mavjud qarashlarni idrok etish natijasidir. Bu - tarkib topgan ijtimoiy voqelikka berilgan real bahodir. Bu - O'zbekiston xalqining ijtimoiy taraqqiyotiga, munosib turmush sharoitiga intilishidir.

Bugungi shiddatli davrda ma'naviyat jamiyat hayotining ustivor yo'nalishini deb tan olingan ekan chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odam inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurash olishi kerak.

Ma'naviyatimiz bugungi kunda turli taxdidlardan asrash uchun qadimiy tariximiz, va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq uzlashtirishi, bugungi kun voqealariga ongli qarab, mustaqil fikrlash, umuman olganda noyob insoniy fazilatlarga ega bo'lish, yuksak ma'naviyatli insonlar burchidir.

Insoniyat tarixi turli davrlarda, turli shakllarda uyg'onish hodisasini boshdan kechirgan. Bir necha asrlik mustamlakachilikdan so'ng yohud milliy tanazzul iztiroblaridan keyin shunday hodisalar yuz beradiki, odamlar o'zlarini anglay boshlaydilar. Fikriy mudroqlikka chek qo'yadilar. Hayotni, olam rang-barangligini anglay boshlaydilar. Tafakkur qudrati bilan yashashga ehtiyoj sezadilar.

Ana shunday paytda inson hayoti tobora chuqurroq mazmun kasb etadi. Insonlikni anglash, odam bo'lib tug'ilib odam kabi yashash zarurati milliy ehtiyoj darajasiga ko'tariladi. Natijada milliy ravnaqqa, umumbashariy taraqqiyotga turtki bo'ladigan jiddiy o'zgarishlarga, umuminsoniy qadriyatlarni yangidan-yangi ne'matlar bilan boyitadigan tub burilishlar vujudga keladi.

Xalqimiz o'zining ko'hna tarixida Uyg'onish hodisasining turli shakllarni ko'rgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino va bshqa o'nlab ulug' bobokalonlarimiz nomi bilan bog'liq bo'lgan IX – XI asr Uyg'onish davri Turonzamin xalqlari tarixdagi birinchi Renessans hodisasi bo'ldi.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar nomi bilan bog'liq bo'lgan qariyb 500 yillik davr turkiylar hayotidagi ikkinchi Uyg'onish davri, milliy tiklanish, milliy taraqqiyot pallasini bo'lib tarixda abadiy qoldi. Bu ikkinchi Renessans hodisasi jahon fani, madaniyati, umuminsoniy qadriyatlarni oliymaqom darajada o'ziga mujassam etgan milliy davlatchilik va boshqaruv tizimining shakllanish bilan bog'liq bo'lgan buyuk voqelikdir.

XX asrning so'ngi yillari o'zbek xalqi tarixida butunlay yangi davrni boshlab berdi. Bu Mustaqillik, Istiqlol tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan Milliy Uyg'onish, butunlay yangi tarixiy sharoitlarda butunlay yangi milliy davlatchilikka asos solish singari abadiyatga daxldor hodisadir. O'zbekiston Respublikasi o'zining juda katta aqliy va jismoniy imkoniyatlarini namoyon etib, jahon siyosatiga eng zamonaviy fikrlar bilan kirib borayotgan, o'zining navatorlik kuchining ko'rsatayotgan, xuddi mamlakat hayotida yuz berayotgani singari jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini ham tubdan isloh qilishga qodir bo'lgan g'oyatda yangi va qudratli imkoniyatlarni ko'rsatib bormoqda.

Milliy uyg'onish, milliy o'zligini anglash mustaqillik bergan buyuk ne'matdir. Ayni ana shu tufayli millat qaddini rostlamoqda. Qadimiy, asrlar mobaynida to'plagan nufuzini qaytadan tiklamoqda. Darhaqiqat, hamisha uyg'oq xalq yaratuvchilikka, bunyodkorlikka qodir bo'ladi. U o'z imkoniyatlarini tobora boyitib boradi.

Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Mustaqillik, Istiqlol tushunchalari va bevosita uning tashabbuskori Islom Karimov nomi bilan bog'liq bo'lgan uchinchi Renessans davri boshlandi. Albatta, bunday milliy taraqqiyot bir necha o'nyilliklar va hatto asrlarni qamrab oladi. Biroq, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, XXI asr O'zbekiston va o'zbeklar hayotida yangi sivilizatsiya davri bo'lib qoladi.

Xulosa

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatda juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Odamlarimiz ongini huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish kabi buyuk maqsadlarimizga binoan o'zgarish xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, buning uchun esa xalq jamiyat, millat manfaatlariga birday mos keladigan va javob bera oladigan milliy g'oyaning zarurligini davrimiz taqozo etmoqda. Milliy g'oyaning naqadar dolzarbligi, jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida har tomonlama asoslab berilgan.

Hech qaysi davlat va jamiyat hech bir davrda mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura o'zida jamiyat a'zolarining hayot mazmunini, orzu-intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "Har qanday inson, tabiiyki murod maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi".¹

Demokratik jamiyatda amal qiladigan plyuralizm (fikrlar, qarashlar xilma-xilligi) kishilarga o'z hayotiy manfaatlari, maqsad va intilishlarini aks ettiradigan ilg'or g'oyani tanlash, himoya qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

Milliy istiqlol g'oyasini, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini hisobga olgan holda yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, bunda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishni, ta'lim tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish ularning kamol topishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud. "Ta'lim

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. T.: "O'zbekiston", 2000, 6-b.

to'g'risida"gi qonunni yangi tahrirda qabul qilish, "YOshlar yili" Davlat dasturining qabul qilinishi fikrimiz dalilidir.

Dasturning bajarilishida "Mahalla" jamg'armasi, "O'zbekiston madaniyat va san'at forumi", "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Mehr nuri", "Sog'lom avlod uchun", "Sen yolg'iz emassan" kabi jamoat tashkilotlari faol ishtirok etadilar.

Milliy istiqlol g'oyasi – demokratik yangilanishlarni aniq maqsadlar sari etkalovchi kuch ekan, uni yoshlar ongiga singdirishning uslub va usullaridan samarali foydalanish biz mutaxassslarning sharaflari burchimizdir. Zero, yoshlarimiz bizning kelajagimiz yaratuvchilari Prezidentimiz ta'kidlaganidek "YOshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir".

Biz esa kezi kelganda, ayni shu yo'nalishda NDPI da olib borilayotgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'taylik. Birinchidan, institutimizda ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha "Ma'naviyat va ma'rifat" xonasining zamon talablari asosida tashkil etilgan, milliy g'oya va ma'naviy ishlarning izchilligini ta'minlash maqsadida institutning barcha fakul'tetlarida "ma'naviyat soati" darslari o'qitilishi, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etuvchi tarixiy sanalar, xalqaro kunlar targ'ib qilinib, tadbirlar o'tkazilayotganligi, eng asosiysi, talabalarning missionerlik, prozeletizm ta'sirlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish mumkin bo'lgan tahdidlarning oldini olish maqsadida tushuntirish ishlari amalga oshirilayotganligini aytib o'tish joiz.

Ikkinchidan, talabalarga milliy g'oyani, ma'naviyat-ma'rifat targ'ib etishda tarix fakul'tetining "Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari" ta'lim yo'nalishining amalga oshirgan ishlarini tilga olishimiz darkor. Masalan, professor-o'qituvchilar tomonidan ishchi o'quv dasturlari tuzilgan va milliy istiqlol g'oyasi fani bo'yicha ma'ruza matnlari, ishlanmalari tayyorlangan. Talabalarning darsga qiziqishini oshirish maqsadida ma'ruza, amaliy mashg'ulot darslari zamonaviy texnikalar bilan yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib boriladi. Mustaqil ish darslari, ekskursiya darslari va uchrashuvlar tashkil etish yo'lga qo'yilgan. Huquqni muhofaza qilish organlari hodimlari bilan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi deputatlari va senatorlar bilan uchrashuvlar o'tkazilayotganligi alohida e'tiborga loyiq.

Uchinchidan, institutimizda 2007 yil davomida 40 ga yaqin ma'naviy-ma'rifiy tadbir, ilmiy – amaliy konferenciya, kecha-uchrashuvlar o'tkazildi. Jumladan, Amir Temurning 671 yilligiga bag'ishlab “Millat dardiga darmon bo'lib”, “O'zbekiston Konstituciyasi: shaxs, jamiyat, davlat”, “Ma'naviyat – millat ko'zgusi”, “Milliy g'oya, ma'naviyat va barkamol avlod tarbiyasi – taraqqiyot omili”, “Globallashuv jarayonida milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va yoshlar tarbiyasi”, “A.G'ijduvoniyni 900 yilligi”, “Deggaroniy tarixiy merosini o'rganish”, “Global terrorizm va uning geosiyosiy o'lchamlari” va hokozalar shular jumlasidandir. Hozirgi kunda Amir Temur davlatchiligi: tarix va hozirgi zamon hamda “Quyri Zarafshon vodiysi: ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti tarixi mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferenciyasini o'tkazish ustida tayyorgarlik ishlari olib bormoqda.

To'rtinchidan, zukko talabalarning bilimdonligi va faolligini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar: “Do'stim, sizga gapim bor” notiqlik tanlovi, “Siz qonunni bilasizmi?”, “Konstituciya bilimdoni” ko'rik tanlovi, “Zakovat” intellektual o'yinlari doimiy ravishda o'tkazilib kelinmoqda.

Beshinchidan, talabalarning amalda bilim va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida, o'quv rejasi asosida Navoiy shahar maktablarida pedagogik amaliyot tashkil etilgan. Bundan tashqari, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi viloyat, shahar va tumanlarning tarixiy obidalariga, muzeylarga, ziyoratgohlarga sayoxatga borish, institutimizda faoliyat yuritayotgan “Kamolot” YOIH tashkiloti tomonidan bepul amalga oshirilmoqda. Bu tashkilot talabalarning eng sevimli jamoat tashkilotiga aylangan. “Mehribonlik” uyi, ijtimoiy yordamga muhtoj qariyalarimiz doimo “Kamolot” YOIHning e'tibor markazidadir.

Oltinchidan, ma'naviy jihatdan etuk kadrlarni tayyorlashda asosiy omil bo'lgan axborot – resurs markazining amalga oshirgan yangicha islohotlarini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Ettinchidan, talabalarni ijtimoiy – iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida institutning 400 o'rinli yotoqxonasi faoliyat boshladi. Yana yoshlarning ma'naviy – ma'rifiy qarashlarini to'g'ri shakllantirish va milliy g'oyani targ'ib qilish maqsadida 25 nafar professor – o'qituvchi tomonidan targ'ibot guruhi tashkil etilib, ularning vazifasi turli xil salbiy ta'sirlardan talabalarning himoya etishga qaratilgan.

Institutimizda keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishdan maqsad talabalarning siyosiy, huquqiy, axloqiy, ma'naviy ongini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va kelajak taqdirini hal qiluvchi ma'naviy etuk yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Axir, YUrtboshimiz: **“Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir”**, - deb bekor aytmaganlar. Agar ma'naviyatni bir daraxt deb oladigan bo'lsak, yuqoridagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar uning ildizini tashkil etadi. Ildizning baquvvatligi esa daraxtning gullab-yashnashi-yu, shirin-shakar hosil berishiga kafolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T.: "O'zbekiston", 1999.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. T.: "O'zbekiston", 2010. 80-b.
3. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil, 28 yanvar
4. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari // I.A.Karimov. – T.: O'zbekiston, 2009. 56-bet.
6. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil, 14 fevral.
7. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: "O'zbekiston", 2009, 24-bet.
8. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.

9. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollari javoblar. 1998 yil, 2-son.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. “Muloqot”, 1998, 5-son.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida. 6-jild, T.: “O’zbekiston”, 1998.
12. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 7-jild, T.: “O’zbekiston”, 1999.
13. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, T.: “O’zbekiston”, 2000.
14. Karimov I.A. O’zbekiston XX asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
15. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
16. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O’zbekiston, 2012.
17. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. T., 1993 y.
18. Mustaqillik: izohli-ommabop lug’at. T. “SHarq” 1998 y.
19. Ergashev F, Ergashev I. Fidoiyluk–hayot mazmuni. T.: “O’zbekistono”, 2001.
20. Jo’rayev N. G’oyaviy immunitet yoki ma’naviy xaloskorlik tuyg’usi. T.: “O’zbekiston”, 2001.
21. Jo’rayev N. O’zbligini anglash mavridi. T.: “O’zbekiston”, 1990.
22. Jo’rayev N. YUksalish. T.: “O’zbekiston”, 1995.
23. Azizxo’jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. T.: “SHarq”, 2001.
24. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlool g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoillar. T.: Akademiya, 2005.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo’nalishi 4- “D” guruh talabasi Bozorov Fazliddinning “Milliy g’oya va ma’naviy qadriyatlar uyg’unligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o’ziga xos mezon vazifasini o’taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo’layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. YOsh avlodning hayotiy mo’ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma’naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy g’oyani ob’ektiv anglashda qadriyatlar va ma’naviyat olamini bilish va uni amaliy o’rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.¹

Ma’naviyat, qadriyatlar va milliy g’oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o’zaro uzviy aloqadorlikda bo’lgan sohalaridir. Shaxs hayotida, umuman insoniyat taraqqiyotida, millat va davlat taraqqiyotining ma’lum davrlarida ma’naviyat va milliy g’oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo’lib maydogan chiqadi.

Demak, qadriyatlarning xilma-xil shakllari mavjud: moddiy va ma’naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlar jamiyat hayotining sohaları bo’yicha: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, qadriyatlar, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa qadriyatlar.

Talaba F.Bozorov “Milliy istiqlol g’oyasi” fanida muhim o’rin egallagan mavzulardan biri - *“Milliy g’oya va ma’naviy qadriyatlar uyg’unligi”* muammosini tanlab, bu dolzarb va bugungi kun uchun nihoyatda zarur bo’lgan tamoillarni o’rgangan. Agar milliy qadriyatlar ma’lum millat, xalqqa xizmat qilsa, umumbashariy qadriyatlar barcha uchun umumiy insoniyat uchun xizmat qiladi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov

¹ Nazarov Q., Ochildiyev A. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – T.: «YAngi asr avlodi», 2002, (177- 178 – betlar).

“O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura” asarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni har tomonlama asoslab bergan edi.

Bitiruv malakaviy ishi ana shu g‘oyani ifodalab mazmun va shakl jihatdan kirish, 5 bo‘lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo‘lib, unda milliy g‘oyaning umumbashariy tamoillari hisoblangan – millatchilik va shovinizmga qarshi kurash, urush olovini yoquvchilarga zarba berish, adolat, tenglik, tinchlik, har bir millatning urf-odat, an‘analari va qadriyatlarining o‘rganish, vayronkor g‘oyalarga qarshi kurashish kabi masalalarni qamrab olgan.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

o‘qit. A.Qandaharov

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo’nalishi 4- “D” guruh talabasi Bozorov Fazliddinning “Milliy g’oya va ma’naviy qadriyatlar uyg’unligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Biron-bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o’z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma’naviyat manbai bo’lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O’zbekiston xalqi avloddan avlodga o’tib kelgan o’z tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo’ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlardanoq ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo’lib qoldi.

Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o’zlikni anglashning o’sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Bitiruv malakaviy ishi ana shu g’oyani ifodalab mazmun va shakl jihatdan kirish, 5 bo’lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo’lib, unda milliy g’oyaning umumbashariy tamoillari hisoblangan – millatchilik va shovinizmga qarshi kurash, urush olovini yoquvchilarga zarba berish, adolat, tenglik, tinchlik, har bir millatning urf-odat, an’analari va qadriyatlarining o’rganish, vayronkor g’oyalarga qarshi kurashish kabi masalalarni qamrab olgan.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

o’qit. H.O’sarov

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo’nalishi 4- “D” guruh talabasi Bozorov Fazliddinning “Milliy g’oya va ma’naviy qadriyatlar uyg’unligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o’lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o’zlikni anglashni, ta’bir joiz bo’lsa, milliy iftixorni tiklash va o’stirish jarayonida g’oyat muhim o’rin tutadi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o’ziga xos mezon vazifasini o’taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo’layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. YOsh avlodning hayotiy mo’ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma’naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy g’oyani ob’ektiv anglashda qadriyatlar va ma’naviyat olamini bilish va uni amaliy o’rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.¹

Ma’naviyat, qadriyatlar va milliy g’oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o’zaro uzviy aloqadorlikda bo’lgan sohalaridir. SHaxs hayotida, umuman insoniyat taraqqiyotida, millat va davlat taraqqiyotining ma’lum davrlarida ma’naviyat va milliy g’oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo’lib maydogan chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishi ana shu g’oyani ifodalab mazmun va shakl jihatdan kirish, 5 bo’lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo’lib, unda milliy g’oyaning umumbashariy tamoillari hisoblangan – millatchilik va shovinizmga qarshi kurash, urush olovini yoquvchilarga zarba berish, adolat, tenglik, tinchlik, har bir millatning urf-odat, an’analari va qadriyatlarining o’rganish, vayronkor g’oyalarga qarshi kurashish kabi masalalarni qamrab olgan.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

kat.o’qit. F.Shirinova

¹ Nazarov Q., Ochirdiyev A. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – T.: «YAngi asr avlodi», 2002, (177- 178 – betlar).